XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG' TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 10 - avgust VI-43-74-4-68-K/22 Yakkabog‘ tuman hokimligi

Yakkabog‘ tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, tuman hokimligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kreditor qarzdorliklarni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan bashqa tadbirlarga tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kreditor qarzdorliklarni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan bashqa tadbirlarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Islomov) hamda tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (SH.Eshmatov)lar;

belgilangan muddatlarda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimining qaror loyihasini kiritisin,

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritisin,

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganishlar o‘tkazish, o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga,

mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida belgilangan tartiblar asosida maqsadga muvofiq foydalansinlar.

5. Tuman G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i v.b (J.Rajabov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashning deputatlari tuman hokimligi bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarning 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirilishi bo‘yicha “Ochiq budjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarda faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Omonov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Islomovlar zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Yakkabog` tuman hokimi  **L.J.ABDULLAYEV**

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman
Kengashining
2022 yil 10 avgustdagi
VI-43-74-4-68-K/22-son qaroriga
1-ilova

Yakkabog’ tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuni bo’yicha daromadlar rejasining ortig'i bilan bajarilgan qismi hisobidan yo’naltiriladigan mablag’lar

mln.so‘mda

№	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori
-	Tuman hokimligiga	Tumanda «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “Ayollar daftari jamg’armasiga yo’naltiriladigan mablag’lar	394.0
-	Tuman hokimligiga	Tumanda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy qo’llab-quvvatlash maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “Yoshlar daftari jamg’armasiga yo’naltiriladigan mablag’lar	394.0
-	Tuman hokimligiga	Tumanda “Temir daftarga kiritilgan ehtiyojmand oilalarni qo’llab-quvvatlash maqsadida "Saxovat va ko’mak" jamg’armasiga yo’naltiriladigan mablag’lar	50.0
-	Tuman hokimligiga	Yakkabog‘ tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 21-apreldagi 4-1806-2201/246-sonli hal qiluv qaroriga asosan tumanda yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali berish uchun ishlab chiqilgan Arxitektura-rejalashtirish topshirig’idan hosil bo’lgan qarzdorlikni qoplash xarajatlariga	55.9
-	Tuman hokimligiga	Tumanda madaniyat va san’at sohasida oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat ta’lim yo’nalishida 5 nafar yoshlarni o’qitish xarajatlariga	41.9
-	Tuman hokimligiga	Qo’riqlash xizmatidan foydalanish bilan bog’liq xarajatlari uchun	93.2
-	Tuman hokimligiga	Internet xizmatidan foydalanish xarajatlari uchun	30.0
-	Tuman hokimligiga	Yoqilg’i moylash mahsulotlaridan xosil bo’lgan qarzdorliklarni qoplash xarajatlariga	44.5
-	Tuman hokimligiga	O’zbekiston ko’zi ojizlar jamiyati Yakkabog‘‘ tuman bo’linmasi xodimlari (rais va kotiba)ning 2022-yilning ikkinchi yarim yillik ish haqlarini barcha ustamalari bilan to’lash xarajatlari uchun	23.4
-	Tuman hokimligiga	tuman hokimligiga qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro’yxatdan o’tkazish yagona elektron-“ E-Qaror” axborot tizimiga abonentlik to’lovi xarajatlariga	18.0

-	Tuman hokimligiga	Tumandagi“Saxovat internat uyida yashovchi 1-gurux nogironi Tursunov Qudrat Ulug’murodovichning“Ajdodlar sadosi kitobini chop ettirish bilan bog’liq xarajatlarga	16.0
-	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligi huzuridagi Ko’nikma Markaziga jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan muqaddam sudlangan fuqarolarga moddiy yordam puli to’lash xarajatlariga	27.0
-	Tuman hokimligiga	Davlat boji to’lovi uchun	8.0
-	Tuman hokimligiga	Yakkabog’‘ tuman hokimligiga qayta tiklanuvchi energiya uskunalarini o’rnatish bilan bog’liq xarajatlarga	220.0
-	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligi, Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati apparat va texnik-xizmat ko’rsatish xodimlarining ish samaradorligini va mas’uliyatini oshirish, kadrlar qo’nimsizligini oldini olish, moddiy va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ular o’rtasida korrupsiyaviy muhitning shakllanishini oldini olish maqsadida oyma-oy ish haqlarining bir-barobaridan ikki barobarigacha miqdorlarda rag’batlantirib borish bilan bog’liq xarajatlarga	210.0
-	Tuman hokimligiga	Tumanda soliq to’lovchilarga soliq xabarnomalarini jo’natish uchun soliq xabarnomalarini chop ettirish hamda pochta xizmati bilan bog’liq xarajatlarga	30.0
-	Tuman hokimligiga	Tumanda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish bo’yicha Referendumga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish davrida trenerlar va uchastka komissiyasi a’zolari uchun tushlik tashkil etish bilan bog’liq xarajatlarga	42.3
-	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman hududidan kesib o’tuvchi Qarshi-Shahrisabz avtomobil yo’li atrofida o’rnatilgan bannerlardan hosil bo’lgan qarzdorliklarni qoplash xarajatlariga	23.0
-	Tuman hokimligi Moliya bo’limiga	Tuman hokimligi moliya bo’limi apparat va texnik-xizmat ko’rsatish xodimlarining ish samaradorligini va masuliyatini oshirish, kadrlar qo’nimsizligini oldini olish, moddiy va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ular o’rtasida korrupsiyaviy muhitning shakllanishini oldini olish maqsadida oyma-oy ish haqlarining bir-barobaridan ikki barobarigacha miqdorlarda rag’batlantirib borish bilan bog’liq xarajatlarga	120.0
-	Tuman Madaniyat bo’limiga	Tuman madaniyat bo’limiga ajratilgan DAMAS avtamoshinasini davlat ro’yxatidan o’tkazish, metan gazi o’rnatish hamda yoqilg’i xarajatlari uchun	9.8

-	Tuman Xalq ta’limi bo’limiga	Xalq ta’limi bo’limiga qarashli tumandagi 2-sonli maktabda Fan olimpiadasi tuman bosqichini o’tkazishda o’quv va laboratoriya xonalariga kuzatuv kameralari o’rnatish, kompyuter texnika vositalarini internet aloqa tizimi bilan ta’minlashdan hosil bo’lgan qarzdorliklarni qoplash xarajatlarga	16.0
-	Tuman Bandlikka ko’maklashish markazi	Qo’riqlash xizmatidan hosil bo’lgan qarzdorlikni qoplash xarajatlariga	21.4
-	Tuman Qishloq xo’jaligi bo’limiga	Elektr-energiyasi va internet xizmati to’lovi uchun hamda xo’jalik mollari sotib olish xarajatlariga	9.1
-	Tuman Axborot-kutubxona markazi	Central Azia-2022 Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari XV xalqaro konferensiyasida qatnashish uchun xizmat safari to’lovlari bilan bog’liq xarajatlarga	2.0
		JAMI	**1899,5**

Izoh: *Ajratiladigan mablag’lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjatlariga asosan o’zgartirish kiritilishi mumkin*